XORAZM VILOYATI URGANCH SHAHAR HOKIMINING

QARORI

2024-yil 23-sentabr | 545-12-180-Q/24 | Urganch shahar hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 3-iyulda “Davlat xizmatlarini ko‘rsatish tizimi soddalashtirilganligi, byurokratik to‘siqlar qisqartirilganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 380-sonli qarori va ushbu qarorga muvofiq viloyat hokimining 2024-yil 8-avgustdagi 319-12-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosi haqida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 3-iyuldagi 380-sonli qarori va ushbu qarorga muvofiq viloyat hokimining 2024-yil 8-avgustdagi 319-12-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida

Qaror qilaman:

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 3-iyulda “Davlat xizmatlarini ko‘rsatish tizimi soddalashtirilganligi, byurokratik to‘siqlar qisqartirilganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 380-sonli qarori va ushbu qarorga muvofiq viloyat hokimining 2024-yil 8-avgustdagi319-12-0-Q/24-sonli qarorlari rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga ilovaga muvofiq quyidagilarni nazarda tutuvchi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin:

elektron raqamli imzoning amal qilish muddatini tugatish asoslari belgilanishi;

bolalarni davlat maktabgacha ta’lim tashkilotiga qabul qilish uchun rasmiylashtirilgan yo‘llanmalarni maktabgacha ta’lim tashkilotiga axborot tizimi orqaliyuborish tartibi joriy etilishi;

ayrim davlat xizmatlaridan foydalanish uchun marhumning yaqin qarindoshlariga ariza bilan murojaat qilish vakolati berilishi;

avtomobil transportida yo‘lovchilarni tashish faoliyatiga litsenziya olish hamda o‘zini o‘zi band qilgan shaxsni davlat soliq xizmati organlarida ro‘yxatdan o‘tkazish xizmatlaridan kompozit shaklda foydalanish tartibi joriy etilishi.

3.Viloyat hokimining qaroriga 1-ilovaga muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilganligi;

- Viloyat boshqarmalari, tashkilotlari va idoralari rahbarlari o‘zlari qabul qilgan hujjatlarini ushbu qarorga muvofiqlashtirilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish shahar hokimining moliya-iqtisodiyotva kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari J.Eshchanov zimmasiga yuklansin.

Urganch shahar hokimi **B.Radjapov**

Urganch shahar hokimining
2024-yil 23-sentabrdagi
545-12-180-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Xorazm viloyat
hokimining2024-
yil 8-avgustdagi
319-12-0-Q/24-son
qaroriga1-ilova

Viloyat hokimining qaroriga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar

1. Viloyat hokimining 2017-yil 22-sentabrdagi 664q-sonli qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali to‘g‘risidagi nizomning 13-bandi quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

“13. Elektron davlat xizmatini ko‘rsatish reglamentlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi”.